

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot  
akademiyasi



Toshkent davlat  
stomatologiya instituti

## TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

Toshkent davlat stomatologiya  
instituti

[www.tsdi.uz](http://www.tsdi.uz)

**Bosh muharrir:** t.f.d., professor A.Q.Shadmanov

**Tahririyat a'zolari:** professor F.L. Azizova, t.f.d., professor Sh.A. Boymurodov, professor S.D. Norqulov, professor Z.M. Muxamedova, professor D.T. Norqulov, professor U.M. Abilov, dotsent F.S. Atamuratova, dotsent S.G. Alimova

**“TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI  
O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, 2023-yil 26-may.**

## YANGI O'ZBEKISTONDA INSON QADR-QIMMATI, XALQ MANFAATI OLIY QADRIYATDIR

**Farida Jurayevna Shokirova, Xurshida Xasanovna Berdiyeva**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi

### ANNOTATSIYA

Keyingi yillarda dunyoda raqobat kuchayib, mard va matonatli xalqimizning turli qarama-qarshilik va to'qnashuvlardagi fidokorona mehnati tufayli Yangi O'zbekiston bunyodkorligida muhim natijalarga erishmoqdamiz. Yutuqlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda, eng muhimi, islohotlar samarasini kundalik hayotida his qilayotgan yurtdoshlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda.

**Kalit so'zlar:** aholi turmush darajasi va sifatini oshirish, yoshlар, xotin-qizlar, keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, manzilli ijtimoiy yordam.

## ДОСТОИНСТВО ЧЕЛОВЕКА, ИНТЕРЕСЫ НАРОДА НАИВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Фарида Джураевна Шакирова, Хуршида Хасановна Бердыева**  
Ташкентская медицинская академия

### АННОТАЦИЯ

В последние годы обострилась конкуренция в мире, благодаря самоотверженному труду нашего мужественного и стойкого народа в различных противостояниях и конфликтах мы добиваемся важных результатов в созидательной работе Нового Узбекистана. Наши достижения получают признание международной общественности, самое главное, меняется мышление и мировоззрение наших соотечественников, которые ощущают результаты реформ в своей повседневной жизни.

**Ключевые слова:** повышение уровня и качества жизни населения, молодежь, женщины, представители старшего поколения, люди, нуждающиеся в социальной защите, стратегия развития Нового Узбекистана, адресная социальная помощь.

Ma'lumki, 2017 yildan buyon mamlakatimizda aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or jahon standartlariga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan har yilgi Davlat dasturi qabul qilinishidan oldin xalqimiz bilan bamaslahatlashgan holda muhokamadan o'tkazilib, so'ngra qabul qilinishi an'anaga aylandi.

Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergen bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning xaqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, erishilgan muvaffaqiyatlarni mustahkmlagan holda tub islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquq va manfaatlarini, uning sha'ni va qadr-qimmatini yuksak darajaga ko'tarish ustuvor vazifamizdir. Bu vazifaning amalga oshirilishi ko'pmillatli xalqimizni yuksak sarhadlar yo'lida yanada jiqlashtiradi, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni, uning hududiy yaxlitligi va davlat chegaralari daxlsizligini saqlashga, jamiyatimizda millatlararo do'stlik, totuvlik va konfessiyalararo bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Yangi O'zbekistonda inson qadr-qimmati, inson manfaatlari oliy qadriyatdir" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan "Tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tushuntirish ishlari dasturi" hujjat bilan tasdiqlandi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi Prezident tomonidan imzolandi. Unda "Yangi O'zbekiston" massivlarini rivojlantirish va aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish chora-tadbirlari belgilandi.

Aholini bozor tamoyillari asosida ipoteka krediti orqali uy-joy bilan ta'minlashning yangi tartibi doirasida mulk xuquqi asosida uy-joyga ega bo'lmagan fuqarolar uchun Toshkent viloyatida tajriba-sinov tariqasida "Mening birinchi uyim" dasturi ishlab chiqilib, amalga oshiriladi. Eng muhimi, Davlat dasturi loyihasida aholini uzluksiz ravishda tabiiy gaz va elektr energiyasi bo'lgan talabini qondirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqaro va mahalliy fond birjalarida "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi"ning ipoteka obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish uchun kompaniyaning ustav fondi 100 mln AQSh dollari ekvivalentiga yetkaziladi. Bunda, ipoteka obligatsiyalarini

joylashtirish hisobiga jalb qilingan mablag'lar ipoteka kreditlari uchun resurs sifatida banklarga joylashtiriladi [1,5].

Tashabbusli byudjet amaliyotini hamda mahallalarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadida: 2023 yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan "Obod qishloq" loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan 8 trillion so'm yo'naltiriladi [1,5].

2023 yilda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha "Obod mahalla" loyiha dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan 4 trillion so'm ajratiladi [1,6].

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga 3 oy muddatda loyihalarni jamoatchilik fikri va "Ochiq byudjet" portalida to'plangan ovozlar asosida moliyalashtirishning samarali tizimini yaratish va amaliyotga kiritish vazifasi yuklanadi. Bunda, ovoz berish jarayonini xolis va ma'muriy aralashuvlarsiz tashkillashtirishning aniq mexanizmlarini joriy qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonining e'lon qilinishi ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Davlat dasturi loyihasi 7 ta yo'nalish, 100 ta maqsad va 309 ta bandni o'z ichiga qamrab olgan [1,1].

Davlat dasturida aholi farovonligini oshirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ko'plab ustuvor vazifalar belgilandi.

Shuningdek, dasturda qonunchilikni takomillashtirish, inson qadri uchun islohotlarni, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ijtimoiy masalalar, yoshlar, ayollar va boshqa toifalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab muhim tadbirlar nazarda tutilgan.

Harakatlar strategiyasi doirasida xalq bilan muloqot qilish samarali yo'lga qo'yildi. Fuqarolarimiz o'zlarini qiziqtirgan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim deb bilgan har bir masalani ko'tarib chiqib, ma'sullar e'tiborini ushbu muammolar yechimiga qaratmoqda.

Jumladan, Davlat dasturi loyihasida inson qadrini ulug'lash tamoyili asosida nogironlik nafaqasini belgilashda fuqarolarga qo'shimcha yengilliklar yaratish ko'zda tutilmoqda. Xususan, 2023 yil 1 martdan boshlab nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida fuqarolar

kasalligining og'irligi va uning asoratlaridan kelib chiqib ularning ishtirokisiz belgilanishi yo'lga qo'yiladi.

Natijada, yiliga 27 ming nafar fuqaro, ya'ni bunday tibbiy ko'rikka muhtoj bo'lganlarning 25 foizi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga bormaydi va ularga nogironlik sirdan belgilanadi. Albatta, bu ham minglab nogironligi bo'lgan fuqarolarga va ularning qarovchilari uchun juda katta yengillik yaratib beradi [1,4], [2,30].

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston" massivlarini rivojlantirish va aholining uyjoyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 2023 yilda 53 ta "Yangi O'zbekiston" massivlari va 161 ta boshqa massivlarda, jumladan, xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan yangi uy-joylar qurishning yillik hajmlari 2 barobarga oshirilib, 90 mingtaga yetkaziladi. 32 ming nafar fuqaroga bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari, shuningdek, 11 ming nafar fuqarolarga boshlang'ich badal va foiz to'lovlaring bir qismini qoplashga subsidiyalar ajratish uchun Davlat budgetidan yetarli mablag'lar yo'naltiriladi. Xusan, bunda muqobil energiya manbalaridan foydalanish tizimini joriy qilish uchun sharoit yaratish maqsadida quvvati 20 kVt va undan past bo'lgan quyosh, shamol va biogaz elektr stansiyalarini past (0,23-0,4 kV) kuchlanishli elektr tarmoqlariga ularash uchun texnik shart olish talab etilmasligi belgilanmoqda. Ushbu tartib ishga tushgandan so'ng qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini o'rnatmoqchi bo'lgan jismoniy shaxslarga qulaylik yaratiladi [1,5].

Bundan tashqari, 2023 yil 1 sentabrdan boshlab yillik hajmi ikki ming tonnadan ortiq shartli yoqilg'i yoki bir ming tonnadan ortiq motor yoqilg'isiga teng energiya resurslarini sarflaydigan tashkilotlar uchun o'z energiya iste'molining kamida 30 foizini qayta tiklanuvchi energiya hisobiga ta'minlash majburiyati yuklatilmoqda [1,5].

Buning natijasida, 2023-2026 yillar davomida iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini iste'mol qilayotgan 25 ta yirik korxona va tashkilotning umumiyligi iste'mol hajmi 4 mlrd. kVt.saat tashkil etishi inobatga olingan holda, ushbu tashkilotlar o'z iste'molini kamida 30 foizini qayta tiklanuvchi energiya manbalar hisobidan ta'minlashi orqali kamida 1,2 mlrd. kVt.saat elektr energiyasi tejalishiga erishiladi.

Bu esa, o'z-o'zidan yirik korxonalarining markazi elektr tarmoqlariga bo'lgan bosimini kamaytirib, tejab qoligan elektr energiyasini minglab xonadolarga yetkazib berish yoki aholi farovonligiga xizmat qiladigan yangi loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, nazorat qilishda partiyalar mahalliy Kengash deputatlari va partiyalarning faol a'zolari bilan har bir xududda va mahallalarga borib o'rganish, mas'ul davlat organlari rahbarlarining xisobotlarini eshitib borish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshiradi. Demak, xalq vakillari berilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali xalqimiz manfaati yo'lida belgilangan vazifalar ijrosida yanada faol bo'lishi lozim. Bugungi o'zgarishlar jarayonida xech kimning kuzatuvchi bo'lib turishga, bee'tibor bo'lishga haqqi yo'q.

Umuman olganda, Davlat dasturi loyihasida belgilanayotgan maqsad va chora-tadbirlarning har birini o'z vaqtida va samarali hayotimizga tadbiq etilishiga barchamiz birdek ma'sulmiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sod Farmoni. 2022-2026 YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI. B.51.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 28.02.2023 y. B.16.

**CONTENTS****MUNDARIJA**

- 
- 39.** Shokirova, F. J., & Berdiyeva, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA INSON QADR-QIMMATI, XALQ MANFAATI OLIY QADRIYATDIR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 186-190.
- 40.** Аккасов, Б. К. (2023). ПЕРВАЯ ВРАЧ-КАЗАШКА, МЕДИК-ПЕДАГОГ – АСФЕНДИЯРОВА УММИ-ГУЛЬСУМ ДЖАФАРОВНА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 191-194.
- 41.** Boboev, F. (2023). XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASINING SOLIQ SIYOSATIDAGI IMTIYOZLAR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 195-198.
- 42.** Уразова, Ў. У. (2023). ТАЛАБА ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАҲАЛЛАРНИНГ ЎРНИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 199-203.
- 43.** Umarova, S. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 204-208.
- 44.** Шавкатов, Ш. Ш. (2023). ВИДЫ ЗАБОЛЕВАНИЙ, ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ У МИГРАНТОВ (СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ОПРОС). *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 209-213.
- 45.** Салимов, Ш. Ю. (2023). МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: АНАЛИЗ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕГУЛИРОВАНИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 214-222.
-